
ICHKI KO'CHALAR TA'MIRLANMOQDA



Aytish lozimki, bugun tumanimizda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib borilyapti va u albatta, xalqimizning xaqli ravishdagi roziligiga sabab bo'lmoqda. Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e'tibor tufayli mahallalarimiz o'zgacha siymo kasb etayotir.

Tumanning 2-sektori hududidagi Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inida ham bugun ichki yo'llar ta'mirlanmoqda. So'x TV yosh muxbiri Javohir G'anijonovning bizga bergan ma'lumotiga ko'ra, ayni damda mahallaning Sangi Siyoh mavzesidagi ko'chalarda betonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

☞ "Avvallari ko'chalarimiz chang, yomg'ir yog'sa, yurib bulmas darajada loy bo'lardi. Endi yo'llarimiz ravon va tekis bulmoqda, Buning uchun Yurtboshimizga cheksiz minnatdorlik bildiramiz", - deb yozmoqda Javohir.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-09-13 11:25:18